



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

¹Xujakulov Sherzod Amankulovich

²Eshmurodova Dilrabo Xo'doyberdi qizi

¹Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

E-mail: timlandiya@gmail.com, tel: 97-916-26-86

²Siyob abu ali ibn sino nomidagi salomatlik texnikumi o'qituvchisi

eshmuradovadilrabo@gmail.com, tel: 33-844-88-30

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHDA PEDAGOGLAR ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Annotasiya. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, axborot-metodik qo'llab-quvvatlash, malaka oshirish jarayonlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zaro uyg'unlashtirish va samarali boshqaruvni tashkil qilish, elektron ta'lim platformalarini ishlab chiqish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: axborot-metodik qo'llab-quvvatlash, elektron platformalar, raqamlashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish.

Абстрактный. Постоянное профессиональное развитие педагогов, информационно-методическое обеспечение, взаимная гармонизация учебных процессов и информационно-коммуникационных технологий и организация эффективного управления, развитие платформ электронного обучения – одна из актуальных задач современности.

Ключевые слова: информационно-методическое обеспечение, электронные платформы, цифровизация, непрерывное профессиональное развитие.

Abstract. Continuous professional development of pedagogues, informational and methodical support, mutual harmonization of training processes and information and communication technologies and organization of effective management, development of e-learning platforms is one of the urgent tasks of today.

Key words: informational and methodical support, electronic platforms, digitization, continuous professional development.

Pedagoglarni uzlusiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun axborot-metodik qo'llab-quvvatlashni raqamlashtirish juda muhimdir. Bu, ularda yangi malakalarni o'rganish, o'quvchilarga eng yaxshi bilimni yetkazish, va maktab yoki oliy ta'limga muassasasida faoliyatlarini samarali boshqarish imkoniyatlarini ta'minlash uchun kerak bo'ladi.

Shuningdek, pedagoglarni uzlusiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo'llab-quvvatlash malaka oshirish jarayonlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zaro uyg'unlashtirish va samarali boshqaruvni tashkil qilishni taqozo qiladi. Malaka oshirish jarayonlarini raqamlashtirish tizimdagagi turdosh ta'limga muassasalarining boshqaruv, o'quv-metodik, monitoring, axborot-resurs ta'minotni bir tarmoqqa integratsiyalash, ma'lumotlarning elektron almashish, elektron-axborot ta'limga resurslarini yaratish, unda tinglovchilar uchun individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirishga yaratilgan shart-sharoitlarni ifodalaydi. Bu esa axborot-metodik qo'llab-quvvatlashda malaka oshirish ta'limga muassasalarining internet tarmog'idagi ta'limga doir saytlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Pedagoglarni uzlusiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo'llab-quvvatlashning ustuvor omillari sifatida axborot-resurs ta'minotning kuchayib borishi qaraladi. Uni pedagoglarni axborot-metodik qo'llab-quvvatlashning individual, jamoaviy va tarmoq darajalarida ko'rishimiz mumkin.

Quyida esa axborot-metodik qo'llab-quvvatlashning tarmoq darajasi tavsifiga batafsilroq to'xtalamiz, chunki bu yondashuv pedagoglarning o'zaro va axborot texnologiyalari orqali ta'sirini "gorizontal" tashkil qilish, hamkorlikni kuchaytirish, o'zini namoyon qilish va tajribalarni almashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarmoq darajasi pedagoglarning hamkorligi, ijobiyligi o'zaro ta'siri, ehtiyojlar va qiziqishlar birligi, ta'limga sifatini oshirishni qadriyat darajasiga ko'taradi. Shuningdek, boshqaruvning markazlashmaganligi, pedagoglarning toifalarga ajratilmasligi, gorizontallik, ma'lumotlarning "maxfiy"ligini saqlash mumkinligi adrogogik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan paritetlikni vujudga keltiradi va motivatsiyani kuchaytiradi. Natijada, axborot-metodik qo'llab-quvvatlashning boshg'oyasi bo'lgan hamkorlik dolzarblashadiki, u falsafiy nuqtayi nazardan har qanday moddiy tizimning mavjudligi va tarkibiy tashkil etilishini belgilaydigan harakatning, rivojlanishning obyektiv va universal shakliga aylanadi.

Axborot-metodik qo'llab-quvvatlashning tarmoq darajasi uslubiy ishlarni mujassamlashtirish, pedagoglarda moslashuvchanlikni ta'minlaydigan axborot-ta'limga

muhitini (yangi muassasalar qo'shilishi yoki takliflari hisobiga) mumkin qadar kengaytirib borish, dinamik xarakter kasb etishi, kasbiy rivojlantirishning ochiqligi va markazlashmasligiga erishishga imkon beradi. Unda quyidagi shartlar ustuvor hisoblanadi:

- jarayonga aloqador subyektlarning o'zlariga yuklatilgan vazifalar mohiyatini aniq tushunishi;

- jarayonni boshqarish, uzlusiz kasbiy rivojlantirish dasturlari mazmunini shakllantirishda ishtirok etish, individual trayektoriyani loyihalash, ekspertiza qilish, maslahat, amalga oshirish;

- qo'llab-quvvatlashda hamkorlik shakllarining xilma-xilligi, turli ta'limi dasturlar loyihamonini ishlab chiqish, tadiqotlar, seminar, maorat darslari o'tkazish;

- g'oyalarni yaratish va taqdim etish uchun imkon berish, resurslar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, o'zaro ta'sirni shakllantirish;

- ilmiy asosga tayanish, faoliyatning yagona konsepsiyasini ishlab chiqish va hamkorlik munosabatlarini tartiblashtirish;

- eng muhim shart, axborot-ta'lismuhiti, axborot oqimlarining mavjudligi.

Tarmoq darajasida hamkorlik pedagogning kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, qiziqishlarini ta'minlash, uni g'oyaga aylantirish va ta'lismuassasasini ham harakatga keltirishga doir faoliyatni tashkil etishda rivojlanadi. Bu yerda umumiyoq ehtiyojlar, qiziqishlar, manfaatlari, muammolar, g'oyalar va ularni amalga oshirishda yakdil bo'lgan pedagoglar guruhi paydo bo'ladi hamda o'zaro ta'sirga asoslangan hamkorlik asosida faoliyat rivojlanadi.

Axborot-metodik qo'llab-quvvatlashda subyektlar hamkorligini tashkil etish jarayon boshqaruvida yangicha yondashuvlarni kiritish zarurligini taqozo qiladi:


- markazlashtirmaslik – axborot-resurs ta'minotni taklif qiladigan ta'lismuassasalarining ko'payib borishi individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini kasbiy ehtiyojlar, qiyinchiliklari, qiziqishlar asosida loyihalash va amalga oshirish imkonini beradi;

- toifalashtirmaslik – pedagoglarni lavozimi, mutaxassisligi, darajalaridan qat'i nazar birlashtirish, hamkorlikni paydo qilish, hamjamiyatga aylantirish, shuningdek, davlat, nodavlat, formal, noformal munosabatlar chegaralarini mumkin qadar kamaytirish;

- majburiylashtirmaslik – har bir xatti-harakatni nazorat qilmaslik, "buyruqsiz muvofiqlashtirish" tamoyiliga amal qilish, ixtiyoriylikka asoslangan hamkorlikni shakllantirish.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, pedagog xodimlarni uzlusiz kasbiy rivojlantirishning axborot-metodik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, axborot-resurs ta'minotini kuchaytirish, hamda

axborot-ta'lismuhitini kengaytirish maqsadida "Mahorat akademiyasi" maxsus elektron platformasi tashkil etildi (1-rasm). U o'zida axborot-metodik qo'llab-quvvatlashning barcha, individual, jamoaviy, tarmoq darajalarini mujassamlashtiradi.



1-rasm. "Mahorat akademiyasi" maxsus elektron platformasining bosh sahifasi ko'rinishi

"Mahorat akademiyasi" elektron platformasi umumta'lim maktab o'qituvchilari uchun barcha fanlar kesimidan video va audio materiallar orqali ilmiy-metodik yordam beradigan axborot-ta'lismuslari hisoblanadi. Ushbu platforma foydalanuvchilar, xususan, umumta'lim maktablari pedagog xodimlari uchun eng so'nggi va eng yangi uslubiy tavsiyalar berishga mo'ljallangan. Platformada pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularga keng qamrovli ilmiy- metodik xizmat ko'rsatish, ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirishning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, ilg'or o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish hamda ularning uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish, emotsiyal zo'riqishning oldini olishga qaratilgan psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, seminar trening, baholash tizimi va turli fan olimpiadalarini tashkillashtirish ishlari amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Xulosa qilishimiz mumkinki, yaratilgan elektron platformada umumta'lim maktab o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlarini aniqlash diagnostikasi, fanlarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari (ta'limda STEAM yondashuv), xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik (PIRLS, TIMMS, PISA, TALIS) bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega, yetakchi o'qituvchilarning ilg'or tajribalari (dars loyihalari, videokontentlari, zamonaviy o'qitish usullari) taqdim etilgan va elektron muhokamadan o'tkazish yo'lga qo'yilgan, shuningdek, bildirilgan fikrlar asosida umumta'lim maktablari uchun takomillashtirilgan axborot-didaktik ta'minot yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/637/1313-son, 24.09.2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmoni. – QHMMB, 06/20/6079/1349-son, 06.10.2020 y.
3. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari: Monografiya. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2019. – 180 b.
4. Сачкова Л.А. Информационно-методическое сопровождение инновационной-деятельности педагогов в муниципальной системе образования: дисс. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2011. – 319 с.
5. Amankulovich X. S., Dilrabo E. AXBOROT-TA’LIM MUHITI-PEDAGOGLARNI QO’LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK SHARTI //FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2023. – C. 651-658.